

# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

## BOSH VAZIRI

J.A.Qo'chqorovga

**Maktabgacha va maktab ta'lifi vazirligi** (Umarovaga),  
**Iqtisodiyot va moliya vazirligi** (Norqulovga)

**1.** Maktabgacha va maktab ta'lifi vazirligining murojaatiga (01-21-111-son, 05.04.2024-y.) rozilik berilsin.

**2. Maktabgacha va maktab ta'lifi vazirligi** (Umarova):

Umumta'lim muassasalarida "**Tabiiy fan** (science)", "**Tarbiya**" va "**Informatika va axborot texnologiyalari**" fanlarini boshlang'ich sinflarda "**Boshlang'ich ta'lif**" o'qituvchilari, "**Tabiiy fan** (science)"ni 5-6-sinflarda esa "**Geografiya**", "**Biologiya**" va "**Fizika**" o'qituvchilari, 5-11-sinflarda "**Tarbiya**" fanini **Tarix, Milliy istiqlol g'oyasi va huquq** mutaxassisligiga ega fan o'qituvchilari dars o'tishlariga;

"**Tabiiy fan** (science)" va "**Tarbiya**" fanidan dars berayotgan boshlang'ich ta'lif, shuningdek fizika, geografiya, biologiya, tarix, davlat va huquq asoslari fanidan amaldagi malaka toifalariga mos ravishda haq to'lanishiga rozilik berilsin.

**3.** Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 2-avgustdagi 425-son qarori bilan belgilangan, oliy malaka toifa (bosh o'qituvchi lavozimi)ga ega bo'lganidan so'ng oliy malaka toifani 15 yil davomida saqlab kelgan va uzlusiz ish stajiga ega bo'lgan pedagog kadrlar navbatdagi majburiy attestatsiyaga jalg etilmaslik tartibi **2022-yil 2-avgustga qadar** 15 yillik uzlusiz ish stajiga hamda oliy malaka toifaga ega (bunda oliy toifaga ega bo'lganlik davri muhim emas) bo'lgan pedagoglarga nisbatan tatbiq etilmasin.

**4.** O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 19-maydagi 312-son qarorining 9-bandida keltirilgan talablar **ikkinci xorijiy til pedagoglarga nisbatan tatbiq etilmasligi belgilansin.**

F.Qosimovga, Sh.Karimovga, B.Onorboyevga, I.Tangriyevga  
J.Achilovga – nazorat uchun



2024-yil "16"-aprel  
№ 30/1-1782



# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN  
100011, Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 2a-uy Tel.: (+998) 71 241-01-86; (+998) 55 503-74-00  
web-site: www.uzedu.uz, e-mail: uzedu@exat.uz

2024-yil "5"-aprel

01-21-111-son

**O'zbekiston Respublikasi  
Bosh vaziri  
A.N. Aripovga**

**Hurmatli Abdulla Nigmatovich,**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kimyo va biologiya yo'naliishlarida uzlusiz ta'lif sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 12-avgustdagi PQ-4805-son qarori bilan umumiy o'rta ta'lif muassasalarida 1-6-sinflarda atrofimizdagi olam, tabiatshunoslik, geografiya, biologiya, fizika fanlari o'rniga tabiiy fan (Science)ni yagona fan sifatida tajriba sinov tariqasida o'qitish bosqichma-bosqich joriy etilmoqda.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Umumiy o'rta ta'lif muassasalarida "Tarbiya" fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 6-iyuldaggi 422-son qarori asosida umumiy o'rta ta'lif muassasalarida "Odobnama", "Vatan tuyg'usi", "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari" hamda "Dunyo dirlari tarixi" fanlarini birlashtirgan holda yagona "Tarbiya" fani 2020-2021-o'quv yilidan boshlab, umumiy soatlar doirasida bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etilgan.

O'qituvchilarga malaka toifalarini berish Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi 572-son qarori bilan tasdiqlangan Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lif tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizom asosida amalga oshiriladi.

Ushbu Nizomning 18-bandida pedagog kadrlar oliy ma'lumot olganligi yoki qayta tayyorlash kurslaridan o'tganligi haqidagi diplomda ko'rsatilgan tayyorlov, ta'lif yo'naliishi, mutaxassislik yoki ixtisosligiga mos keladigan o'quv fanlari bo'yicha attestatsiyadan o'tishi va pedagog kadrlarning diplomida bittadan ortiq tayyorlov yoki ta'lif yo'naliishi, mutaxassislik yoki ixtisoslik ko'rsatilgan bo'lsa, ular dars berayotgan har bir o'quv fani bo'yicha alohida attestatsiyadan o'tishi belgilab qo'yilgan.

Boshlang'ich ta'lif yo'naliishi bo'yicha oliy ma'lumot to'g'risidagi diplomda o'quv fanlarining nomi ko'rsatilmaganligi uchun, boshlang'ich ta'lif o'qituvchilarining malaka toifa sinovlari boshlang'ich sinflarda o'qitilayotgan asosiy o'quv fanlari (ona tili va adabiyot, matematika, tarbiya, tabiiy fanlar, texnologiya va h.k)dan umumlashtirilgan holda o'tkaziladi. Shu sababli, boshlang'ich ta'lif bo'yicha berilgan malaka toifasi ular boshlang'ich sinflarda dars beradigan barcha o'quv fanlariga nisbatan shu jumladan tarbiya hamda

OZBEKISTON RESPUBLIKASI  
VAZIRLAR MAHKAMASI  
KEL. 1-1782  
2024-yil 15-aprel

informatika va axborot texnologiyalari fanlariga ham tatbiq etilishi maqsadga muvofiq.

*Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha va mifikta ta'limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2023-yil 26-maydagi PF-79-son Farmoni bilan umumiy o'rta ta'lim muassasalarining boshlang'ich sinflarida informatika fani joriy etilgan.*

Oliy ta'lim muassasalarining mutaxassislik yo'nalishlarida "Tabiiy fan (science)" va "Tarbiya" fanlarini o'qitish uchun alohida mutaxassislar tayyorlanishi ko'zda tutilmagan. Bu esa ta'lim tashkilotlarida mazkur fanlardan kimlar dars o'tishi mumkinligini aniqlash hamda mazkur fanlar bo'yicha tashkil etilgan maxsus malaka oshirish kurslaridan o'tib, vaqtincha dars o'tayotgan nomutaxassis o'qituvchilar mehnatiga haq to'lashda tushunmovchiliklarni keltirib chiqarmoqda.

Shu bilan birga, ta'lim tashkilotlarida 15 yillik uzluksiz ish stajiga ega bo'lgan oliy malaka toifali pedagog kadrlarni navbatdagi-majburiy attestatsiyadan ozod etilishi bo'yicha ham tushunmovchiliklar kelib chiqmoqda.

*Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 572-son qaroriga Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 2-avgustdagi 425-son qarori bilan kiritilgan tegishli o'zgartirishga ko'ra, oliy malaka toifa (bosh o'qituvchi lavozimi)ga ega bo'lganidan so'ng oliy malaka toifani 15 yil davomida saqlab kelgan va uzluksiz ish stajiga ega bo'lgan pedagog kadrlar navbatdagi majburiy attestatsiyaga jalb etilmasligi belgilangan.*

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarini xorijiy til va zamonaviy kasblarga o'qitish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2024-yil 2-fevraldagi PQ-53-son qarori bilan 2024-2025 o'quv yilidan boshlab, umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Fanlarni chuqurlashtirib o'qitish" yo'nalishi doirasida o'quvchilarni 10-11-sinflarda ikkinchi xorijiy tilga o'qitish belgilab berilgan.

Maktablarda mazkur amaliyotni joriy etishda ikkinchi xorijiy til (nemis, fransuz, koreys, xitoy, yapon, ingliz tili) pedagoglarini jalb etishda to'siqlar yuzaga kelmoqda.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida xorijiy til pedagoglarini ishga qabul qilish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-maydagi 312-son qarorining 9-bandida belgilangan talablar asosida amalga oshiriladi.

Mazkur qarorga ko'ra 2024-2025-o'quv yiliga qadar umumiy o'rta, o'rta maxsus va professional ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan barcha xorijiy tillar o'qituvchilari kamida B2 darajadagi milliy yoki unga tenglashtirilgan mos darajadagi xalqaro sertifikatga ega bo'lishi lozimligi belgilab berilgan.

*Ma'lumot uchun: 2024-2025-o'quv yilida ikkinchi xorijiy til o'qitilishi reja qilinayotgan maktablar soni 374 tani tashkil etib, mazkur maktablarning 111 tasida B2 darajadagi milliy yoki unga tenglashtirilgan mos darajadagi xalqaro sertifikatga ega mutaxassislarni jalb etish imkoniyati mavjudligi aniqlandi.*

Yuqoridagilarni inobatga olib:

umumta'lim muassasalarida “Tabiiy fan (Science)”, “Tarbiya” hamda “Informatika va axborot texnologiyalari” fanlarini boshlang‘ich sinflarda “Boshlang‘ich ta’lim” o‘qituvchilari tomonidan, 5-6-sinflarda “Tabiiy fan (Science)”ni “Geografiya”, “Biologiya” va “Fizika” o‘qituvchilari tomonidan, 5-11-sinflarda “Tarbiya” fanini Tarix, MIG‘ va huquq mutaxassisligiga ega fan o‘qituvchilari tomonidan dars o‘tishlariga ruxsat berish;

“Tabiiy fan (Science)” va “Tarbiya” fanidan dars berayotgan boshlang‘ich ta’lim, shuningdek fizika, geografiya, biologiya, tarix, davlat va huquq asoslari fanidan amaldagi malaka toifalariga mos ravishda haq to‘lanishiga ruxsat berish;

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 2-avgustdagi 425-son qarori bilan belgilangan, oliv malaka toifa (bosh o‘qituvchi lavozimi)ga ega bo‘lganidan so‘ng oliv malaka toifani 15 yil davomida saqlab kelgan va uzlusiz ish stajiga ega bo‘lgan pedagog kadrlar navbatdagi majburiy attestatsiyaga jalb etilmaslik tartibi 2022-yil 2-avgustga qadar 15 yillik uzlusiz ish stajiga hamda oliv malaka toifaga ega (bunda oliv toifaga ega bo‘lganlik davri muhim emas) bo‘lgan pedagoglarga nisbatan tatbiq etilmasligi;

Vazirlar Mahkamasining “Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 19-maydagi 312-son qarorining 9-bandida keltirilgan talablarni ikkinchi xorijiy til pedagoglariga nisbatan tatbiq etilmasligi yuzasidan ko‘rsatma berishingizni so‘raymiz.

Qaroringiz uchun kiritilmoqda.

**Hurmat bilan,**

**Vazir**



**X.Umarova**